farzand ko‘radi. Anorxon Ganjaga butun hayotini bag‘ishlaydi. O‘g‘li va kelini unga onalik baxtini ato etadi. Ularning tashrifi esa hovlisini gulzorga aylantiradi. *Huvillab yotmoq* va *chamandek yashnamoq* iboralari orqali xursandchilik kayfiyatini ifodalashda lingvopoetik vosita bo‘lgan hamda Anorxonning holatini tasvirlashga xizmat qilgan. Badiiy asarlarda antonim so‘zlar “hodisa va holatning ichki ziddiyatini ochishda, xarakterlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlashda yozuvchiga qo‘l keladi.

Xulosa. Erkin Samandar o‘z nasriy asarlarida zid ma’noli so‘zlardan mohirlik bilan foydalana olgan. Ular vositasida matnning ta’sirchanligi oshirilgan hamda yozuvchining badiiy niyati aniq va yorqin tasvirlangan. Antonimlar yordamida voqea-hodisalarni zid tarzda qo‘llash, obrazlar mohiyatini ochish adib uslubining o‘ziga xos jihati sifatida namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз естетикаси. Тошкент, “Фан”, 1981, 15-бет.

(2). Еркин Самандар. Ғайб қушлари. Тошкент, “Шарқ”, 2009, 242-бет.

(3). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент, 1985, 164-бет.

(4). Ҳомидий Ҳ. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент,” Ўқитувчи”, 1970, 30–31-бетлар.

(5). Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол.фан. д-ри...дисс., Самарқанд, 1993, 219–220-бетлар.

(6). Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980.

(7). Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 1979.

(8). Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 254-бет.

(9). Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Тошкент, “Маънавият”, 2002, 80-бет.

Sobirov Qahramon Saloyevich (Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi ”Tillarni o‘qitish metodikasi’ kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK DRAMATIK ASARLARIDA SINEKDOXA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek dramaturgiyasida sinekdoxaning badiiy va sahnaviy ifoda vositasi sifatida tutgan o‘rni chuqur tadqiq etiladi. O‘zbek dramatik asarlari tahlil qilinib, ulardagi sinekdoxa namunalarining dramatik ma’no va sahnaviy kuchini oshirishdagi roli ochib berilgan. Tadqiqotda matn va sahna tahlil metodlari qo‘llangan.*

Kalit so‘zlar: *sinekdoxa, o‘zbek dramaturgiyasi, dramatik ifoda, badiiy vosita, sahnaviy tahlil.*

Собиров Кахрамон Салоевич (Центр педагогического мастерства Хорезмской области, кафедра Методики преподавания языков, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент)

СИНЕКДОХА В УЗБЕКСКИХ ДРАМАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В этой статье подробно исследуется роль синекдохи как средства художественного и сценического выражения в узбекской драматургии. Анализируются узбекские драматические произведения, раскрывается роль образцов синекдохи в усилении драматического смысла и сценической силы. В исследовании использовались методы анализа текста и сцены.*

Ключевые слова: *синекдоха, узбекская драматургия, драматическое выражение, художественная среда, сценический анализ.*

Sobirov Qahramon Saloyevich (doctor of philosophy in philological Sciences (PhD), associate professor, Department of language teaching methodology, Khorezm regional center of pedagogical skills)

SYNECDOCHE IN UZBEK DRAMATIC WORKS

Annotation. *This article explores in depth the role of synecdoche as a means of artistic and stage expression in Uzbek drama. Uzbek dramatic works were analyzed, revealing the role of synecdoche samples in them in increasing dramatic meaning and scenic power. The study used text and scene analysis techniques.*

Key words: *synecdoche, Uzbek drama, dramatic expression, artistic medium, stage analysis.*

Kirish (Introduction). Sinekdoxa so‘zning ko‘p ma’noliligini yuzaga chiqaruvchi ko‘chimlardan biridir. Sinekdoxaning mohiyati shundan iboratki, ayni bir so‘z butun ma’nosini ham, qism ma’nosini ham ifodalaydi. Masalan, *qo‘l, oyoq, bashara, kalla, qorin* va boshqalar kishi tanasining bir qismi sifatida ham qo‘llanadi, lekin shunday holatlar ham bo‘ladiki, ular butun bir kishi ma’nosida ham ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ko‘plik son o‘rnida birlik ishlatilishi sinekdoxaning qiziqarli ko‘rinishlaridan ekanligi R.Qo‘ng‘urov tomonidan misollar orqali dalillangan [1;25-b.]. Rus tilida otlarda rod tushunchasining almashib kelishi ham shu xil hodisalardan ekanligi ilmiy ada-

biyotlarda qayd etiladi. Chunki «chelovek» so‘zi mujskoy rodda bo‘lganligi uchun ayol jinsidagi odam haqida mulohazada ham shu so‘zning rod belgisiga ko‘ra, nutqda fe’l mujskoy rodda turaveradi [2;37-b.].

Metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi hodisalar so‘zning ko‘p ma’noliligini hosil qilishda muhim rol o‘ynaganlari kabi, badiiy asarlar tilida, jumladan, drama asarlari personajlari nutqida obrazlilik, tasviriylik, emotsionallikni hosil qilishda ham katta ahamiyatga egadir. Ular badiiy tasvir vositasi sifatida troplarning muhim ko‘rinishlaridan bo‘lib, sifatlash, jonlantirish, o‘xshatish, mubolag‘a, apostrofa va boshqa troplar orasida o‘ziga xos o‘rin tutadilar.

Ko‘pgina tilshunoslar metafora, metonimiya, sinekdoxaning leksik-grammatik va uslubiy ma’no anglatish tabiatini o‘rganar ekanlar, ularning tildagi va badiiy nutqdagi farqlanish jihatlariga e’tibor berishadi. Ayniqsa, metafora yuzasidan qiziqarli munozaralar o‘rtaga tashlanmoqda. Masalan, tilshunos B. Umurqulov poetik metaforalarni o‘rganar ekan, tilda va badiiy nutqda qo‘llanilishiga ko‘ra, metaforani: a) til metaforasi; b) badiiy metafora deb ikkiga bo‘lib o‘rganadi [3;59-b.]. Bunda u, avvalo, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalash xususiyati bilan ajralib turishi, shuningdek, badiiy metaforada o‘xshashlik yashiringan holda bo‘lishini nazarda tutadi.

A.V.Kalinin metaforalarning hosil bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilar ekan, ularni shakliy o‘xshashlikka asoslangan, funksiya o‘xshashligiga asoslangan metaforalarga ajratadi [2;26-b.]. Shuningdek, uning metaforalarni: a) ot-metaforalar; b) obrazli umumtil yoki umumpoetik metaforalar; d) individual-stilistik yoki ayrim muallifga xos metaforalar deb o‘rganishi ham qiziqarlidir [2;26–27-b.].

Metaforani mubolag‘ali metafora, leksik metafora, singdirilgan metafora, kengaytirilgan metafora, poetik metafora kabi turlarga bo‘lib o‘rganish ham keng qo‘llaniladi [4;231-b.].

Ayrim ishlarda, umuman, troplarni individual–mualliflik va til troplari deb ikkiga bo‘lib qarash rasm sanaladi [5;48-b.].

K.A.Dolinin metafora ko‘rinishlarini: a) bir bo‘lakli; b) ikki bo‘lakli; d) ko‘p qatlamli; e) kengaytirilgan metaforalarga bo‘lib o‘rganadi [6;137-b.].

Tilshunos R.Qo‘ng‘urov metaforalarni tuzilishiga ko‘ra, sodda va kengaygan deb ikkiga bo‘lib o‘rganishni ma’qul topadi [1;16-b.].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek tilshunosligida metaforalarni ot-metafora va fe’l-metafora deb ajratish nuqtayi nazari ham mavjud [7;17-b.]. Bu xil bo‘lishda ko‘zda tutilgan ot-metaforalarning ba’zi ko‘rinishlarini ayrim manbalarda «quruq metafora» [2;26-b.] deyilsa, ayrim manbalarda «o‘lik», «tosh qotgan», «odatga aylangan», «siyqalangan» metafora deyiladi [4;232-b.]. Ba’zan ularni metafora deyish kerakmi-yo‘qmi, deya gumon ostiga qo‘yiladi. Masalan, A.Abdullayev so‘z ma’nosining o‘zgarishiga tildan tashqari sabablardan yana biri fikrning ifoda maqsadi bo‘lib, bunda ikki maqsad: a) affiktivlik; b) ifoda ta’sirini yumshatish maqsadi yotishini to‘g‘ri qayd etadi va affiktivlik, ya’ni, bayon etiladigan fikrning ta’sir kuchini orttirish, tinglovchida kuchli taassurot uyg‘otish maqsadida hosil bo‘lgan nom ko‘chishiga nisbatan shunday munosabat bildiradi [7;12–14-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda o‘zbek dramaturgiyasida sinekdoxa san’at vositasining qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilindi. Maqola mazmunini ishlab chiqishda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo‘llanildi:

1. **Matnshunoslik va stilistik tahlil.** Asarlarda sinekdoxaning stilistik vazifalari – obraz yaratish, ijtimoiy-ma’naviy ma’nolarni chuqurlashtirish, xarakter va konfliktlarni ifodalashdagi roli matnshunoslik asosida tahlil etildi.

2. **Semantik va pragmatik yondashuv.** Sinekdoxa vositasida berilgan ma’no ko‘chishlari, umumlashtirish va timsollashtirish usullari semantik va pragmatik mezonlar asosida o‘rganildi. Har bir sinekdoxa namunasi kontekstda qanday ishlayotgani va tinglovchi yoki tomoshabinning qabul qilishida qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishidir. Ulardagi farq shundaki, agar metonimiyada umumiy yaqinlikka ko‘ra nom ko‘chsa, sinekdoxada bu ko‘chim doimiy yaqinlikka asoslanadi. Bunda:

A) **Kalla** kishi ma’nosida keladi

Shodmon

Ey ahmoq, ey nodon, ey **sodda kalla.** («Hamza»)

Bu yerda personaj o‘z-o‘ziga murojaat qiladi, aldanib, og‘ir qiyinchiliklarga tushganligi, yaxshi-yomonni ajrata olmaganligidan afsuslanadi. Sodda kalla deganda o‘zini, o‘zining soddaligini nazarda tutadi.

Berdiyor

Qayt, **xum kalla,** sendaqasin biz ko‘p ko‘rganmiz.

(«Mirzo Ulug‘bek»)

Bu yerda personaj nutqida sinekdoxa bilan metafora qo‘shilib ketgan. Chunki bu yerda so‘zlovchi kalla deb kishining o‘zini ko‘zda tutadi. Uning boshini xumga o‘xshatish bilan “quruq, aqli yo‘q” degan ma’noni ifodalaydi.

Netayxon. Erga tegasanmi? Hoy, **kalla,** senga aytayotibman, juvanmarg, gapirsang-chi? («Tobutdan tovush»). Bu yerda ham personaj nutqida kalla so‘zi butun odam ma’nosida kelgan, lekin esi yo‘q, ma’-nosi ham nazarda tutilgan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, kalla so‘zi ko‘proq kishiga nisbatan salbiy emotsional baholash ma’nosini o‘zida tashiydi hamda so‘zlovchining mensimasligi, kamsitishi, do‘q urishi kabi uslubiy ma’nolarni qo‘shib ifodalaydi. Natijada personaj nutqida obrazlilik, emotsionallik yuzaga keladi.

B) Butun o‘rnida qism qo‘llanib, sinekdoxa hosil bo‘lishiga millat nomining o‘sha millatga mansub bir qism kishilar ma’nosida (yoki aksincha) qo‘llanishi ham misol bo‘ladi.

Dehqonboy. Nemisni qayerga quvib bording?

Qo‘ziyev. Nemisga yetolmadim, aka, kelishda qadamlab keldi-yu, qochishda yomon ham shataloq otib qochdi-ya! («Shohi so‘zana»).

Bu yerda go‘yo bir nafar nemis millatiga mansub kishi haqida gap ketayotganday muomala qilingan. Aslida, nemis millatiga mansub bosqinchi guruh – dushman askarlari ma’nosi anglashiladi.

Ushbu nutq parchasida metafora hodisasi ham mavjud. Shataloq otib qochmoq hayvonga xos xususiyatdir. Uni dushmanlar harakatiga nisbatan qo‘llashda o‘ta masxara qilish ifodasi mavjud.

D) butun uy ma’nosida uning bir qismi – «**ostona**»ning o‘zi qo‘llanilishi.

Po‘latjon domla. Qizingizning baxtini birovlarning **ostonasidan qidirmang.**

(«Og‘riq tishlar»).

E) sinekdoxaning ommalashib ketgan ko‘rinishlaridan biri sifatida **«oqsoqol», «oqsoch»** so‘zlarining kishi ma’nosida qo‘llanishidir.

Berdiyor.

Endi asl bosh to‘rani ko‘rgil, **(oqsoqol!)**

1 fuqaro.

Ey **oqsoqol,** taxt bor joyda, shohlar bor joyda

Urushmasa, sardorlarning qilichi zanglar.

Nigorxonim.

Firuza kim? Bir kanizak, makkora, **oqsoch!** («Mirzo Ulug‘bek»)

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

O‘zbek dramatik asarlarida sinekdoxa – qisqalik va ta’sirchanlikni birlashtiruvchi kuchli vosita sifatida shakllangan. O‘zbek dramaturglari milliy qadriyatlarni, insoniy orzu-umid va ijtimoiy muammolarni kichik detal vositasida keng ma’noda ifodalashga muvaffaq bo‘lishgan. Demak, ma’no ko‘chdi degan so‘z-tushuncha ko‘chdi degan so‘z, shu tushuncha ifodalagan narsa, belgi yoki harakat ko‘chdi degan so‘z; narsa, belgi yoki harakat ko‘chdi degan so‘z, shu harakat, belgi, narsa boshqa harakat, belgi, narsaga o‘tdi (aylandi) degan so‘zdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent, ”Fan”, 1977.

(2). Калинин А.В. Лексика русского языка. М., МГУ, 1978, 232 с.

(3). Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. T., “Fan”, 1990, 112-bet.

(4). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., “Советская энциклопедия”, 1966, 608 с.

(5). Чижик-Полейко А.И. Стилистика русского языка. Воронеж, 1962, 116 с.

(6). Долинин К.А. Стилистика французского языка. Л.,“Просвещение”, Ленинградское отделение, 1978, 344 с.

(7).Tilshunoslik masalalari (to‘plam). T., “Fan”, 1978, 308-bet.

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna (Farg‘ona davlat universiteti, “Ingliz tili amaliy kursi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD; shahloxonkarimjonova@gmail.com; ORCID ID 0009-0006-0224-3315)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARDAGI VIZUAL KOGNITIV FE’LLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi vizual kognitiv fe’llarning leksik-grammatik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ko‘rmoq, kuzatmoq, qaramoq kabi o‘zbek tilidagi fe’llar va see, observe, look, watch kabi ingliz tilidagi fe’llar tahlil qilinadi. Tahlil ikki tildagi vizual idrok jarayonlarini ifoda-*